

TIF BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH: DOLZARB MASALA VA YECHIMLAR

Rafikova Muattar Ravshanovna

Bojxona Instituti kata o'qituvchisi, falsafa fanlari doktori

Jumanova Go'zalxon Jamoljon qizi

Bojxona instituti 4-kurs kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10002737>

Annotatsiya. Hozirgi O'zbekistonda barcha sohalarni tizimli ravishda raqamlashtirish ishlari olib borilayotgan bir vaqtda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq jinoyatlar ham zamonaviy tendensiyalarga mos ravishda o'zgarib, moslashib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur ilmiy maqola TIF sohasi bilan bog'liq jinoyatlar tushunchasi, turlari, ularni fosh etish metodologiyasi hamda hozirda ushbu yo'nalishda uchrayotgan muammolar va ularning yechimlarini yoritib berishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat, jinoyatlarni fosh etish, bojxona to'g'risidagi qonunchilik, soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash, jinoiy javobgarlik, bojxona chegarasi, tovarlarni noqonuniy o'tkazish, bojxona to'lovlari

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichidagi iqtisodiy jarayonlar tarkibidagi tashqi iqtisodiy munosabatlarning ahamiyatini qanchalik muhimligini baholash qiyin emas. Iqtisodiyotni bitta davlat chegaralari bilan cheklash qiyin, iqtisodiyotda globallashtirish jarayonlari faollashdi, mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar iste'molchilarining raqobati va talablari oshdi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy hamkorlik savdo va almashinuv bilan cheklanib qolmaydi, kapital harakati, valyutani tartibga solish, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va boshqalar ham sezilarli darajada rivojlandi.

Dunyodagi globallashtirish jarayonlari, shuningdek O'zbekistondagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar TIF sohasi bilan bog'liq jinoyatchilikda yuz berayotgan o'zgarishlarga va unga qarshi kurashish usullariga ta'sir qiladi. Raqamlashtirish, moddiy dunyoning virtuallashtirish borishi, jinoiy guruhlarining maxfiylik, zamonaviy texnologik uskunalarning qo'llanilishi TIF sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etish usullarini ham yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. **A.V.Vardanyan** va **O.P.Gribunov** ta'kidlaganidek, "jinoyatlarni tergov qilishda nafaqat amaliy ko'nikmalar, balki turli toifadagi jinoyatlarni tergov qilish jarayonini to'liq va tizimli ravishda amalga oshirishga yordam beradigan nazariy bilimlar ham zarur"[1, B-81].

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq jinoyatlar asosan soliq, boj, yig'im va boshqa majburiy to'lovlarni kamroq to'lash yoki umuman to'lamaslik maqsadida sodir etiladigan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatlaridir. Ushbu jinoyatlar bojxona to'lovlari va yig'implar hisobidan byudjetga pul tushishini cheklab, valyuta zaxiralarining shakllanishiga va milliy valyutamizning barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu esa ijtimoiy rivojlanishning salbiy omili bo'lib, uning keng ko'lamda yoyilishi iqtisodiy islohotlarga real tahdiddir.

TIF sohasida sodir etiladigan jinoyatlar bo'yicha Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida javobgarlik belgilangan. Jumladan, JKning 182-moddasi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish" jinoyati bevosita TIF sohasida sodir etilsa, shuningdek JKning 175-moddasi "O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish", 177-modda "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish", 178-modda "Chet el valyutasini yashirish", 184-moddasi "Soliqlar yoki yig'implar to'lashdan bo'yin tovlash", 185¹-modda

“Rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o‘tkazish qoidalarini buzish”, 186¹-modda “Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish”, 186²-modda “Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish”, 186³-modda “Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o‘tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o‘tkazish, dori vositalarini yoki tibbiy buyumlarni dorixonalaridan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish, shuningdek tarkibida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjud bo‘lgan dori vositalarini retsept bo‘yicha chakana realizatsiya qilish tartibini buzish”, 243-moddasi “Jinoiy yo‘l bilan kiritilgan daromadlarni legalizatsiya qilish”, 246-moddasi “Kontrabanda” va boshqalar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq jinoyatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoiy qonunchiligida “tashqi iqtisodiy faoliyat” jinoyatning alohida obyekti sifatida qabul qilinmagan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2019 yil 31 dekabrda 329-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Uslubiy qo‘llanmaning 1-bob 2-qismida **“TIF sohasidagi huquqbuzarliklar – yuridik va jismoniy shaxslar, davlat organlarining tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish jarayonida sodir etiladigan huquqbuzarliklari tushuniladi”**- deb ta’rif berilgan[2]. Ushbu ta’rif TIF sohasida jinoyatlarni mazmunini to‘liqligicha ochib bermagan va ushbu yo‘nalishda bir qator ilmiy tadqiqotchilarning fikrlari bilan tanishib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

TIF sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan aksariyat mualliflar ushbu tushuncha tajovuz obekti orqali shakllantirilishini ta’kidlaganlar. Masalan, **L.D.Gauxman** tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy munosabatlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri tajovuz qiladi va iqtisodiy manfaatlarga zarar etkazadi[3, B-481], deb e’tirof etadi. **B.V.Voljenkinning** so‘zlariga ko‘ra, bu jinoyatlar tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi o‘rnatilgan tartibni buzuvchi jinoiy harakatlardir[4, B-122], deb ta’riflaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013 yil 6 sentyabrda 18-sonli qaroriga ko‘ra, “Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o‘tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi”[5] deb belgilab qo‘yilgan.

Tovarlar yoki boshqa qimmatliklar qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazish tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish yoki mazkur hududdan olib chiqish tarzidagi harakatni quyidagi usullardan biri orqali sodir etishda ifodalanadi:

- bojxona nazoratini chetlab o‘tish;
- bojxona nazoratidan yashirish;
- bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanish;
- deklaratsiya qilmasdan yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanish;
- chegarani buzib o‘tish.

O‘tkazish deganda, jinoyat predmetlarini har qanday usuldan foydalanib, shu jumladan xalqaro pochta jo‘natmalarini yuborish, quvurlar orqali hamda elektr uzatish liniyalaridan

foydalanish yo'li bilan bojxona chegarasi orqali olib o'tish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish tushuniladi.

Bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasini tekshirish, tovarlarni ko'zdan kechirish va bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlar noto'g'riligi aniqlangunga qadar bojxona deklaratsiyasida yo'l qo'yilgan xatolarning deklarant tomonidan mustaqil tuzatilishi ma'muriy va jinoiy javobgarlikni istisno etadi[6].

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida bojxona to'lovlari va yig'imlarini to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun alohida normada javobgarlik belgilanmasdan, ular soliq va majburiy to'lovlarning bir turi sifatida Jinoyat kodeksining 184-moddasidagi "Soliqlar yoki yig'imlar to'lashdan bo'yin tovlash" jinoyati tarkibiga kiritilgan.

tovarlarni bojxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq ravishda davlat boji tariqasidagi soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashda ifodalangan harakatlar Jinoyat kodeksi 182-moddasi bilan qamrab olinib va Jinoyat kodeksi 184-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi[7].

Soliq turlaridan bosh tortish va boshqa tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bogliq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarni sodir etish, yashirin iqtisodiyot shakllanishi uchun zamin yaratadi, bozor munosabatlari rivojlanishi va faoliyatiga to'sqinlik qiladi, chunki byudjet siyosatining barqarorligini buzadi, jamiyatda ijtimoiy keskinlik va siyosiy beqarorlikni vujudga keltiradi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish jinoiy tajovuz obyektlarining to'g'ri aniqlanishiga bog'liq bo'lib, bu bir tomondan, tadbirkorlikning erkinligi va xavfsizligi, halol raqobatni, boshqa tomondan davlatning iqtisodiy manfaatlarini ifodalaydi.

Bojxona amaliyotida aniqlanayotgan bojxona to'lovlari bilan bog'liq jinoyat ishlarini tahlil qilish asosida ushbu jinoiy qilmishni sodir etishda qo'llaniladigan bojxona to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashning bir qator usullarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- bojxona rejimlaridan noqonuniy foydalanish;
- bojxona qiymatini kamaytirib ko'rsatish;
- ma'lum bir tovarni boj to'lovi kamroq bo'lgan boshqa o'xshash tovar sifatida TIF TN bo'yicha xalqaro kod raqamini o'zgartirib yoki qalbakilashtirilgan kelib chiqish sertifikatini bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etish;
- deklaratsiya qilmaslik yoki noto'g'ri deklaratsiyalash, shu jumladan tovarlarning miqdori va vazni kamaytirib ko'rsatilgan hujjatlarni bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etish yoki tovarlarni bir qismini deklaratsiya qilmaslik;
- tovarlarni boshqa nom bilan deklaratsiyalash;
- tovarlarni bojxona organlari belgilagan manzilga etkazib bormaslik;
- imtiyozlardan noqonuniy foydalanish[8].

Jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu tergov amaliyotini har xil turdagi jinoyatlarning oldini olish, ochish va tergov qilishni tashkil etish samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi jinoyatlarni fosh etish usullari bilan doimiy ravishda to'ldirishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etish metodologiyasi haqida gapirishdan avval, TIF sohasidagi jinoyatlarni sodir etish usullari haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Chunki aynan shu usullar bo'yicha jinoyatlarni sodir etilishini oldini olish bo'yicha uslubiyatlar ishlab chiqish jinoyatlarni tez va oson fosh etish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotining tahlili ushbu jinoyatlar bir qator mustahkam shakllangan usullar vositasida sodir etilishidan dalolat bermoqda.

Bojxona organlari xodimlari TIF sohasidagi huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va fosh etish maqsadida o'zining kundalik ish faoliyatida bojxona organlarining tashqi savdo operatsiyalari to'g'risida yuritilayotgan Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini tashkil etuvchi barcha ma'lumotlarni o'rganishi, xavf tizimi boshqaruvi haqidagi barcha hujjatlarni sinchkovlik bilan tekshirishi, tovarlar eksport yoki import qilingan mamlakatlarning bojxona xizmatlaridan bojxonaga taallukli hujjatlarni so'rovnoma asosida olishlari, olingan hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona organiga TIF qatnashchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning har biri bilan alohida solishtirishlari, aniqlangan tafovutlar bo'yicha tekshiruv ishlarini olib borishlari va qonuniy qaror qabul qilishlari lozim.

Bojxona xodimi sodir etilgan TIF sohasida bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzilishi holatlari yuzasidan quyidagi tergovga qadar tekshiruv harakatlarini o'tkazadi:

1. Hodisa sodir bo'lgan joyni (chegara bojxona postida, tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postida, bojxona nazorati o'rnatilmagan chegara uchastkalarida va O'zbekiston Respublikasining ichki hududlari) ko'zdan kechirishi;
2. Jinoyat sodir etilish quroli yoki predmeti bo'lgan ashyolarni qidirib topishi, ko'zdan kechirishi va qonun hujjatlariga asoslangan holda olib qo'yishi;
3. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsdan tushuntirishlar olishi;
4. Ishga aloqador shaxslardan (xolislari, guvohlar) yoki holat bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslardan tushuntirishlar olishi;
5. Lozim bo'lganda gumon qilingan shaxslarni belgilangan tartibda ushlab turishi;
6. Ekspertiza tayinlashi;
7. Boshqa zaruriy protsessual harakatlarni amalga oshirishi shart.

Hozirgi kunga kelib, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ularning manfaatlarini kafolatli himoya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish maqsadida olib borilgan keng islohotlar natijasida, qo'shni davlatlar bilan do'stona ishonchli munosabatlar tiklanishi bilan chegaradosh hududlarda nazorat soddalashtirilganligi, bojxona sohasidagi qonunbuzilishi holatlari sonining keskin kamayishiga, bojxona nazorati o'rnatilmagan aylanma yo'llar orqali tovar-moddiy boyliklarini olib o'tilishiga chek qo'yilmoqda. Bu esa, bojxona sohasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning latent ko'rinish olishiga, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Amaliyot ko'rsatib turibdiki, bojxona sohasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar uyushgan guruhlar tarkibida, puxta niqoblangan, murakkab jinoiy sxemalardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda.

Bunday tavsifga ega jinoyatni fosh etishga faqat bojxona ishining nozik jihatlarini bilgan holda, kriminalistik va tezkor-qidiruv usullarni, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv harakatlarini puxta olib borish, tergovga qadar tekshiruv va protsessual harakatlarni puxta amalga oshirish hamda protsessual hujjatlarni mustahkam rasmiylashtirish yo'li bilangina erishiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hozirgi jadal tez sut'atlarda rivojlanib borayotgan integratsiyalashuv, sanoat, savdo miqyosining o'sishi ayni vaqtda yashirin iqtisodiyotning o'sishi, jinoyatchilikning rivojlanishi va jinoyat sodir etishning yangi-yangi usullari paydo bo'layotganligini ko'ramiz. Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq jinoyat

turlari juda keng va ayni paytda, ularni sodir etish usullari ham turli xildir. Ushbu holat har bir jinoyat turlari va usullari bo'yicha alohida alohida jinoyatlarni fosh etish metodologiyasi ishlab chiqishni taqazo etadi.

References:

1. Варданян А.В., Грибунов О.П. Современная доктрина методико-криминалистического обеспечения расследования отдельных видов преступлений // Вестник Восточно-Сибирского института МВД России. 2017. № 2
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2019-yil 31-dekabrdagi 329-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish tartibi to'g'risida"gi Uslubiy qo'llanmasi.
3. Уголовное право. Часть Общая. Часть Особенная: учебник / под общ ред. проф. Л.Д.Гаухмана, проф. Л.М. Колодкина и проф. С.В. Максимова. Москва 1999.
4. Волженкин Б.В. Экономические преступления. Санкт-Петербург, 1999.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-son "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi "Soliqlar yoki yig'imglar to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 8-son qarori
8. Achilov A.T., Sheraliyev B.Y. "Tashqi iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va ular bo'yicha bojxona tekshiruvlarini o'tkazish uslubiyati". O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: 2015.